ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti



№10(4)
2026

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Elektron nashr. 348 sahifa,
20-oktyabr, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich – Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd), dotsent

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI
Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Karimova E.G. – Sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Raxmonova Z. A. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Sayimova D. K. – texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:
Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician
Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician
Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor
Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan
Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor
Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)
Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)
Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)
Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)
Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)
Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)
Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor
Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor
Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers "Yangi O'zbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor
Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)
Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor
Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service
Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor
Rakhmonova Z.A. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)
Sayimova D. K. – Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences
Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor
Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics
Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region
Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences
Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
• Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
• Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)
Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
• Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
• Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA CONTENTS СОДЕРЖАНИЕ

MUNDARIJA

Pedagogical Model for Developing Students' Communicative Competence: Organisation of Experimental Work and Evaluation of its Effectiveness 10
Mukhamedova Matlyuba Satvaldiyevna, Xudoyberdiyev Olloqul Isaqovich

Bakalavriat darajasida bo'lajak matematiklarning kasbiy hamda amaliy malakalarini rivojlantirish usullari ... 17
Abduraxmonov Abdumo'min, Sheraliyev Aliboy Tulboyevich

Sport mashg'ulotlarini real vaqt rejimida boshqarishda ter biomarkerlarini o'lchovchi taqiladigan biosensorlar 20
Meliqo'ziyev Azizjon Adxamjon o'g'li

Ekstremal issiqlik sharoitida sportchilarning ish qobiliyatini oshirish shakllari: akklimatsiya, sovitish va individual gidratatsiya dalillari 26
Qodirova Shahlo Shavkatjon qizi

Mikroorganizmlarda fermentatsiya orqali energiya hosil bo'lishi va uning biotexnologik ahamiyati 31
Raxmatullaeva Maxfuza Igamberdiyevna

Bo'lajak pedagoglar tayyorgarligida learning analytics asosidagi metodik ta'minotning mazmuni va tuzilishi 37
Akbarova Sevaraxon Xusanboy qizi

Sovet davridan mustaqillik davrigacha O'zbekistonda suv siyosatining tarixiy transformatsiyasi: Orolbo'yi inqirozi misolida 45
Dadaboyev Nodirbek Ergashali o'g'li

Digital SAT matematika bo'limida maxsimal (800 ball) natijaga erishish strategiyalari va desmos interfaol imkoniyatlaridan foydalanish 51
Abdullayev G'ayratjon Mutalipovich

Ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan pedagoglarning, kreativ yondashuv asosida talabalarning nutq va tafakkurini rivojlantirishga oid nazariy bilim hamda amaliy malakalarga egaligi 55
Abdullayeva Mavluda Aribovna

Bo'lajak pedagoglarda pedagogik improvizatsion ko'nikma va malakalar 62
Ablokulov Sherali Davronovich

Interaktiv platformalar vositasida bo'lajak pedagoglarning texnologik-amaliy kompetensiyasini rivojlantirish: elektron ta'lim resurslarini yaratish tajribasi 66
Maxmudov Abduxalim Xamidovich, Yo'ldashev Axrorjon Egamnazar o'g'li

Elektr yoritish fanini o'qitishda yangi interfaol metodlarning ahamiyati 71
Nasretdinova Feruza Nabiyevna

Developing Methodological Decision-Making Skills in Pre-Service English Language Teachers Through Clil-Based Tasks 75
Nilufar Achilovna Tuxtayeva

Developing Linguocultural Competence Through Digital Storytelling in English Language Teaching: an Integrated Approach 79
Rakhimov Mansur

Nature of Speaking in EFL Contexts: Fluency, Accuracy, and International Competence 83
Rashidova Nodira Khabibullayevna, Egamberdiyeva Marjona Abdurasul kizi

Autizmli bolalarning sensor rivojlanishida ta'lim muhitining o'rni 89
Sh. A. Nurmatova

Ta'limda inson va sun'iy intellekt hamkorligining metodologik transformatsiyasi: inson markazli pedagogik paradigma 94
Tadjimatova Xosiyatxon Botirjon qizi

Ingliz tilini o'qitishda aralash metodlarni qo'llashning didaktik asoslari va darsni loyihalash modeli 102
Usmonova Dilnoza Muratovna

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Онлайн-проекты как механизм формирования профессиональных навыков у будущих учителей русского языка 106
Матниязова Азиза Бахтияровна

Malakali dzyudochilarni tayyorlashda texnik-taktik mahoratni takomillashtirish mexanizmlariga innovatsion yondashuv 110
Tangriyev Abdullo Tovashevich

Malakali dzyudochilarni xalqaro musobaqalarga tayyorlash tizimini takomillashtirish: Olimpiya saralash davrida rejalashtirish va cho'qqi shaklga chiqarish 116
Tangriyev Abdukarim Tovashevich

Sinfdan tashqari faoliyatlar jarayonida hadislarga asoslangan ma'naviy-axloqiy tarbiyaning pedagogik salohiyati va amaliy asoslarini takomillashtirish 122
Fayzullayeva Gulnoza Kamolovna

Ta'lim loyihalarining iqtisodiy-pedagogik samaradorligini baholashning nazariy-metodologik asoslari 129
Saitxonov Bobomurod Po'latovich

Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan logopedik mashg'ulotlarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi 133
Tojiboyeva Osiyoxon Alisher qizi

Aksiologik yondashuvning pedagogik va psixologik mohiyati 138
Hafizov Shahriyor Shavkatovich

Emotsional intellektni rivojlantirishda kognitiv yondashuvning nazariy-metodologik asoslari 142
Nishonova Lobar Mirzakulovna

Boshlang'ich sinflarda ongli o'qishni leksik-kognitiv yondashuv asosida rivojlantirish 146
Ne'matova Diyora Baxodir qizi, Shabbazova Dilfuza Ruzikulovna

O'qituvchilarda kasbiy stressning yuzaga kelishiga ta'sir etuvchi individual-psixologik omillar 153
Konratbayeva Ayjamal Bazarbayevna

Xorijiy tajribada neyropedagogik yondashuvlar va kognitiv boshqaruv modellari: kengaytirilgan tanqidiy komparativ tahlil 158
Izzatullayeva Zohidaxon Sunatdullayevna

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining pedagogik mahoratini rivojlantirish muammosi: pedagogik tahlil 164
Abrorxonova Kamolaxon Abrorxon qizi, Israilova Oydin Uchkun qizi

O'zbek musiqiy merosi va uni talabalarda qadriyatli munosabat sifatida shakllantirish 169
Mannapov Sultonali, Mansurova Nigoraxon Rustamjonovna

Integrativ ta'lim texnologiyalari va raqamli vositalar asosida bilish kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi 173
Quvvatova Mohira Hikmatillayevna

Maktabgacha ta'limda 6–7 yoshli bolalarning metakognitiv kompetensiyalarini o'yin faoliyati orqali rivojlantirishning texnologik dasturi va uni amaliyotga tatbiq etish tizimi 177
Nuritdinova Xurshida Narpulatovna

Futbol texnikasining asosiy elementlari va texnik harakatlarni bajarish usullarini o'rgatish 182
Sadriddin Tulepov

Innovatsion ta'lim muhiti asosida pedagogika fanini o'qitish modelining samaradorligini tajriba-sinov asosida baholash 187
Abdusattorova Sarvinoz Norqo'zi qizi

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida badiiy idrok va fanga oid kompetensiyalarni rivojlantirishning sinergetik-integrativ asoslari 192
Abdullayeva Feruza Nurillayevna

Rus tilini o'qitish jarayonida talabalarning o'qish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi 197
Allayarova Dilfuza Klichevna

Practical Methodological Approaches to Developing Management Skills of Deputy Directors in Preschool Educational Organizations Principles of Connecting Theoretical Knowledge With Practical Activity 201
Makhamadalieva E'zoza Rustamkhuja

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Kimyo muhandisligi terminologiyasida polisemiya hodisasi 205
Shomurodova Zebiniso Rajabovna

Talabalar o'quv muvaffaqiyatini rivojlantirishning pedagogik, psixologik va texnologik determinantlari 209
Turaboyeva Madinaxon Raxmonjon qizi

O'quvchilarning madaniyatlararo kompetensiyasini mediamatnlar vositasida rivojlantirishga oid xorijiy tajriba tahlili 219
Turdimuratova Aysanem

Искусственный интеллект в преподавании русского языка в узбекоязычной аудитории: возможности, риски и методические решения 224
Мустанов Убайдулла Зулпанович

Shaxs texnologik tafakkuri fenomenining falsafiy-antropologik va gnoseologik talqini 229
Toshpulatova Farida Radjabovna

Lotin tilining zamonaviy tilshunoslikdagi o'rni 234
Shirinkulova Shafoat Malikovna, Rajabova Charos Shavkat qizi

Bo'lajak o'qituvchilar raqamli mediamadaniyatini kasbiy-pedagogik sifat sifatida rivojlantirishning konseptual asoslari 240
Narmanov Alisher Hasanovich

Maktabgacha ta'lim tashkiloti menejerlarining intellektual salohiyatini tashxislashning metodik ta'minotini takomillashtirish 244
Abdumo'minova Lobar Abdujabbarovna

Sun'iy intellekt orqali talabalar kasbiy sifatlarini rivojlantirishning boshlang'ich tushunchalari 249
Normurodov Sherzod Boymurodovich

"Smart o'qish" raqamli platformasi va muallif metodlari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy komponentlarini rivojlantirish 253
Obidova Shohsanam G'anijon qizi

Lingvopoetikada shakl va mazmun birligi xususida nazariy qarashlar 257
Quvonchoy Yusupova

Designing an ESP Coursebook for Architecture Students on the Basis Of VTTSS 262
Sabirova Nilufar Kudratovna

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tasviriy faoliyatni kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish 266
Xasanova Shaxnoza Toxtasinovna

A Comparative Study of Idiom and Environmental Meaning in the Works of Ernest Hemingway and Tog'ay Murod 272
Zebiniso Allayarova, Malika Bahromova

Maktabgacha ta'limda o'yinga asoslangan ta'limni takomillashtirishning O'zbekiston Respublikasidagi me'yoriy-huquqiy asoslari 277
Farmonov Murodullo Sunnatilloyevich

Обучение русскому языку студентов направления узбекской филологии с использованием искусственного интеллекта: методическая модель 282
Набиева Камиля Азимовна

Bo'lajak tarbiyachilar mediakompitentligini raqamli texnologiyalar vositasida shakllantirish samaradorligini baholash mezonlari va diagnostik vositalari 290
Tavobova Ozoda Farhodovna

Все три брата Лобачевские действительно восприняли талант отца 296
Жумаев Эркин Эргашевич, Аманниязова Бибимариям Пирнияз кызы

Pedagogik tafakkur tarixida fikr tarbiyasi: yondashuvlar va zamonaviy ta'limda qo'llanish imkoniyatlari 302
Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna

Maktabgacha va boshlang'ich ta'limni raqamlashtirish muammolari 306
Raxmatullayeva Malika Bahodir qizi

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirish texnologiyalarining pedagogik imkoniyati 310
Imomkulova Ozoda Norboboyevna

Pedagogika mutaxassisligi magistrlarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning interdisiplinar mexanizmlari... 315
Jumaniyazova Go‘zal Baxorovna

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida parametr qatnashgan chiziqli tenglamalarni o‘rganish bo‘yicha ba’zi bir mulohazalar..... 319
Musayeva Ziyoda Allayarovna

Bo‘lajak pedagoglarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda muammoli ta’lim va keys-stadi metodlarini integratsiyalash..... 325
Namozova Barno Navruzovna

Umumta’lim maktablarida formativ baholash orqali o‘quvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish: pisa yondashuvi asosida 331
Norqulov Furqat Maxmatmo‘minovich

O‘quvchilarda agressiv xulq-atvorni boshqarish va ijtimoiy xulq-atvorni tarbiyalash usullari..... 336
Nusratova Setora Dilshod qizi, Sh. U. Nurullayeva

Bo‘lajak pedagoglarni tayyorlashda STEAM texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari 343
Raxmatullin Rafis Sagitovich, Zaitov Iskander Ravilevich, Ikromova Rano Ubaydullayevna, Qodirova Raxima Rajabovna, Muratbayeva Aliya Paraxatovna, Juman Turonovich

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

O'QUVCHILARDA AGRESSIV XULQ-ATVORNI BOSHQARISH VA IJTIMOIY XULQ-ATVORNI TARBIYALASH USULLARI

Nusratova Setora Dilshod qizi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Sh. U. Nurullayeva
Qarshi davlat universiteti professori

Annotatsiya: Ushbu maqola o'quvchilarda, xususan, boshlang'ich sinf o'quvchilarida agressiv xulq-atvorning kelib chiqish sabablarini, uning ta'lim-tarbiya jarayoniga ta'sirini tahlil qiladi va uni samarali boshqarish, korreksiya qilish hamda ijtimoiy-qabul qilinadigan xulq-atvorlarni shakllantirish metodikasini ilmiy-amaliy jihatdan asoslaydi.

Maqolada agressiya muammosiga psixologik (ijtimoiy o'rganish nazariyasi, kognitiv-xulq-atvor nazariyasi, frustratsiya-agressiya gipotezasi) va pedagogik (faoliyatga asoslangan ta'lim, ijtimoiy-hissiy ta'lim, pozitiv xulq-atvorga yordam berish) yondashuvlarning uyg'unligi asosida kompleks yechimlar taklif qilinadi. Sinf muhitini boshqarish, ijtimoiy-hissiy ko'nikmalarni o'rgatish, xulq-atvorni pozitiv mustahkamlash, konfliktlarni konstruktiv hal qilish, shuningdek, ota-onalar va boshqa mutaxassislar bilan hamkorlik qilishga qaratilgan strategiyalar batafsil yoritilgan.

Tadqiqotning maqsadi - agressiv xulq-atvorning oldini olish, uni to'g'rilash va bolalarda ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish bo'yicha o'qituvchilar, ota-onalar va psixologlar uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqish, ta'lim samaradorligini oshirish hamda sinfda ijobiy, xavfsiz va rivojlantiruvchi muhitni yaratishga ko'maklashishdan iborat.

Kalit so'zlar: Agressiv xulq-atvor, xulq-atvor boshqaruvi, ijtimoiy tarbiya, korreksiya, boshlang'ich sinflar, ijtimoiy-hissiy ko'nikmalar, pozitiv mustahkamlash, konfliktlarni hal qilish, o'qituvchi roli, ota-onalar bilan hamkorlik, faoliyatga asoslangan ta'lim.

Abstract: This article analyzes the causes of aggressive behavior in students, particularly in primary grades, its impact on the educational process, and scientifically and practically substantiates methods for effectively managing, correcting, and fostering socially acceptable behaviors.

The article proposes comprehensive solutions to the problem of aed on a synthesis of psychological (social learning theory, cognitive-behavioral theory, frustration-aggression hypothesis) and pedagogical (activity-based learning, social-emotional learning, positive behavior support) approaches. Strategies focused on classroom environment management, teaching social-emotional skills, positive behavior reinforcement, constructive conflict resolution, and collaboration with parents and other specialists are detailed.

The research objective is to develop practical recommendations for teachers, parents, and psychologists on preventing and correcting aggressive behavior, developing social competencies in children, enhancing educational effectiveness, and creating a positive, safe, and nurturing classroom environment.

Key words: Aggressive behavior, behavior management, social education, correction, primary grades, social-emotional skills, positive reinforcement, conflict resolution, teacher's role, parent collaboration, activity-based learning.

Аннотация: Данная статья анализирует причины возникновения агрессивного поведения у учащихся, в частности в начальных классах, его влияние на учебно-воспитательный процесс и научно-практически обосновывает методику эффективного управления, коррекции и формирования социально приемлемых форм поведения.

В статье предлагаются комплексные решения проблемы агрессии на основе синтеза психологических (теория социального научения, когнитивно-поведенческая теория, гипотеза фрустрации-агрессии) и педагогических (деятельностный подход, социально-эмоциональное обучение, поддержка позитивного поведения) подходов.

Подробно освещены стратегии, направленные на управление классной средой, обучение социально-эмоциональным навыкам, позитивное подкрепление поведения, конструктивное разрешение конфликтов, а также сотрудничество с родителями и другими специалистами. Цель исследования - разработать практические рекомендации для учителей, родителей и психологов по предотвращению и коррекции агрессивного поведения, развитию социальных компетенций у детей, повышению эффективности обучения и созданию позитивной, безопасной и развивающей среды в классе.

Ключевые слова: Агрессивное поведение, управление поведением, социальное воспитание, коррекция, начальные классы, социально-эмоциональные навыки, позитивное подкрепление, разрешение конфликтов, роль учителя, сотрудничество с родителями, деятельностное обучение.

KIRISH

Ta'lim tizimi jamiyatning intellektual va ma'naviy poydevorini shakllantiruvchi asosiy institutlardan biridir. Bolalik davri, ayniqsa, boshlang'ich sinflar - shaxs shakllanishining eng muhim va hal qiluvchi bosqichi hisoblanadi. Bu davrda bolalarda dunyoqarash, qadriyatlar tizimi, xulq-atvor me'yorlari, ijtimoiy ko'nikmalar va shaxsiy sifatlarning tamal toshi qo'yiladi. Shu bois, ushbu bosqichda o'quvchilarning nafaqat akademik bilimlarini rivojlantirish, balki ularni ijtimoiy moslashgan, hissiy jihatdan yetuk va jamiyatga foydali shaxs sifatida tarbiyalash ustuvor vazifa sanaladi.

Biroq, zamonaviy ta'lim muhitida o'quvchilar, xususan, boshlang'ich sinf bolalarida agressiv xulq-atvorning namoyon bo'lishi tobora dolzarb muammoga aylanmoqda. Agressiya - bu boshqalarga yoki o'ziga jismoniy, og'zaki, psixologik yoki bilvosita zarar yetkazishga qaratilgan har qanday xatti-harakatdir. Boshlang'ich sinflarda u itarish, urish, tepish, so'kish, masxara qilish, narsalarni buzish, tengdoshlarini o'yindan chetlatish kabi shakllarda ko'rinishi mumkin. Bunday xulq-atvor o'quvchilarning o'zaro munosabatlariga, sinf muhitiga, akademik ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Agressiv bolalar ko'pincha tengdoshlari tomonidan rad etiladi, o'qituvchilar bilan munosabatlari yomonlashadi va bu holat ularning kelajakdagi ijtimoiy moslashuvida jiddiy muammolarga olib kelishi mumkin. Sinfda agressiyaning mavjudligi esa boshqa o'quvchilarning o'rganishiga xalaqit beradi, xavfsizlik va xotirjamlik muhitini buzadi.

Agressiv xulq-atvorning ildizlari ko'p omilli bo'lib, oilaviy muhit (zo'ravonlik, e'tiborsizlik, haddan tashqari nazorat), tengdoshlar ta'siri, ommaviy axborot vositalarining salbiy ta'siri (agressiv o'yinlar, multfilmlar), bolaning individual temperament xususiyatlari (impulsivlik, yuqori reaktivlik) va ta'lim-tarbiya jarayonidagi kamchiliklar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bu holat o'qituvchilar, ota-onalar va maktab psixologlaridan agressiyani o'z vaqtida aniqlash, uning sabablarini tushunish va samarali tarbiyaviy hamda korreksiya usullarini qo'llashni talab etadi. Aks holda, kichik yoshdagi agressivlik kattalarda jiddiyroq xulq-atvor buzilishlariga, ijtimoiy noto'g'ri yo'nalishlarga aylanib ketishi xavfi mavjud.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi - o'quvchilarda agressiv xulq-atvorning oldini olish, uni to'g'rilash va ijtimoiy xulq-atvor me'yorlarini shakllantirishning nazariy asoslarini, pedagogik tamoyillarini va amaliy mexanizmlarini ishlab chiqish, shuningdek, bunday yondashuvning samaradorligini ilmiy jihatdan asoslashdan iborat. Bunda fanlararo bog'liqlik, xususan, psixologiya va pedagogika bilimlarini integratsiyalashgan holda qo'llashga alohida e'tibor qaratiladi.

Agressiv xulq-atvor bilan ishlash bir martalik tadbir emas, balki sinfdagi kundalik hayotning bir qismi bo'lishi kerak. Amaliyotda bu ish uch bosqichda olib borilganda yaxshi natija beradi:

birinchidan, agressiya paydo bo'lishidan oldin uning zamini kuchsizlantiriladi (profilaktika);

ikkinchidan, u allaqachon yuz bergan paytda o'qituvchi to'g'ri va xotirjam harakat qiladi (interventsiya);

uchinchidan, bola yangi, maqbul xulq usullarini egallashi uchun muntazam mashq qilinadi (ijtimoiy xulq-atvorni tarbiyalash).

Quyida shu bosqichlarning har biri boshlang'ich sinf sharoitiga moslab yoritiladi.

Ish boshlanishidan oldin bir narsani aniq tushunib olish zarur: bolaning agressiv harakati deyarli har doim biror maqsadga xizmat qiladi. Kimdir shu yo'l bilan o'qituvchi yoki sinfdoshlarining e'tiborini tortadi, kimdir o'ziga yoqqan o'yinchoqni qo'lga kiritadi, yana kimdir u uchun og'ir bo'lgan topshiriqdan qutulib qoladi.

Xulq-atvor tahlilida bu "xulq-atvorning vazifasi" deb ataladi.[1] Agar o'qituvchi harakat ortidagi sababni topa olmasa, qo'llangan jazo ham, rag'bat ham vaqtinchalik ta'sir qiladi, xolos. Shu bois, har bir holatda dastlab "bola nima uchun shunday qildi?" degan savolga javob izlash kerak bo'ladi.

Profilaktik usullar (Agressiyaning oldini olishga qaratilgan):

Ijobiy va xavfsiz sinf muhitini yaratish:

- Aniq qoidalar va chegaralar: Sinf qoidalarini o'quvchilar bilan birgalikda ishlab chiqish, ularni sodda, tushunarli tilda ifodalash va ko'rinadigan joyga osib qo'yish. Qoidalar har doim ijobiy (nima qilish kerakligi) shaklda bo'lishi kerak (masalan, "jim bo'l" o'rniga "tingla").
- Muntazam kun tartibi: Barqaror va oldindan bashorat qilinadigan dars jadvali, kun tartibi bolalarda xavfsizlik va tartib tuyg'usini shakllantiradi, bu impulsiv va agressiv xulq-atvorni kamaytiradi.
- O'qituvchi-o'quvchi munosabatlari: O'qituvchi har bir o'quvchiga hurmat, e'tibor va iliqlik bilan munosabatda bo'lishi, ularning shaxsiyatini qadrlashi. Bolalar bilan ishonchli va do'stona aloqa o'rnatish.
- Adolatli munosabat: Barcha o'quvchilarga bir xil adolatli munosabatda bo'lish, xolis baholash va nizolarni adolatli hal qilish.

1 Azimov R. G. (2006). Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent: O'qituvchi.

Ijtimoiy-hissiy ko'nikmalarni muntazam o'rgatish. Bolalar o'z his-tuyg'ularini bilmagan holda ularni boshqara olmaydi. Shuning uchun har kuni darsning boshida 5-7 daqiqalik "ertalabki davra" o'tkazish foydali: har bir bola bugun kayfiyati qandayligini rasmli kartochka yordamida ko'rsatadi, xohlasa, sababini ham aytadi. Bunday odat ikki narsani beradi: bola his-tuyg'uni so'z bilan ifodalashga o'rganadi, o'qituvchi esa kuni bilan e'tibor berishi kerak bo'lgan o'quvchilarni oldindan ko'radi.

Hissiyotlarni anglashda o'zbek xalq ertaklari ham yaxshi material bo'ladi. Ertak qahramoni nega xafa bo'ldi, g'azablanganida nima qildi, boshqacha yo'l tutsa nima o'zgarardi, degan savollar bolaning o'z xatti-harakatiga tashqaridan qarashiga yordam beradi. Shuningdek, g'azab kuchayganda qo'llash mumkin bo'lgan oddiy usullarni, ya'ni sekin nafas olish, o'ngacha sanash, "to'xta - o'yla - tanla" qoidasini o'rgatish va ularni o'yin shaklida mashq qildirish lozim (Goleman, 1995; CASEL, 2017).

Harakat va hamkorlikka asoslangan faoliyatlar. Kichik yoshdagi bola uzoq vaqt bir joyda o'tirishga fiziologik jihatdan tayyor emas, to'planib qolgan energiya esa tez-tez tortishuv va do'pposlashishga aylanadi. Dars o'rtasida bir daqiqalik jismoniy mashqlar, tanaffusda tartibga solingan harakatli o'yinlar, jamoa bo'lib bajariladigan topshiriqlar bu holatni yumshatadi. Muhim jihati shundaki, jamoaviy o'yinlarda g'olib bitta bola emas, butun guruh bo'lishi kerak: masalan, hamma birgalikda rasm-jumboqni yig'adi yoki bir-birining yordami bilan to'siqli yo'lakdan o'tadi. Raqobatga qurilgan o'yinlar agressivlikka moyil bolalarda yutqazish bilan bog'liq g'azabni kuchaytirishi mumkin, hamkorlikka asoslangan o'yinlar esa "biz" tuyg'usini kuchaytiradi.[2]

Kuzatish va erta aniqlash. Muammoni boshlanishidayoq payqash uchun o'qituvchida sodda kuzatuv tizimi bo'lishi kerak. Ish tajribasida "oldingi holat – xulq – oqibat" jadvali yaxshi natija beradi: daftarning bir sahifasiga hodisa qachon va qayerda yuz berdi, undan oldin nima bo'ldi, bola nima qildi, keyin nima kechdi, degan ma'lumotlar qisqa yozib boriladi. Bir-ikki hafta o'tgach, ma'lum qonuniyat ko'zga tashlanadi: agressiya, aytaylik, doim matematika darsidan keyin yoki tanaffusda ma'lum bir bola bilan to'qnashganda paydo bo'ladi. Sinfdagi o'zaro munosabatlarni bilish uchun esa sotsiometrik so'rovdan, ya'ni bolalardan kim bilan birga o'tirishni yoki o'ynashni xohlashini so'rashdan foydalansa bo'ladi. Bu usul sinf jamoasidan chetda qolayotgan va aynan shu sababli tajovuzkor bo'lib borayotgan bolalarni aniqlashga yordam beradi.

Axborot muhitini hisobga olish. Bola ko'rgan narsasini taqlid qiladi. Ijtimoiy o'rganish nazariyasiga ko'ra, bolalar o'zlari kuzatgan xulqni, ayniqsa u mukofotlangan yoki "kuchli" ko'rsatilgan bo'lsa, tez qabul qiladi (Bandura, 1973). Shu sababli ota-onalar bilan suhbatda bolaning qaysi multfilm va o'yinlarni tomosha qilishi, ular qanchalik zo'ravonlikka boy ekani haqida ham gaplashish zarur. Taqiqlash bilan cheklanib qolmasdan, tengdoshlari bilan birga o'ynaydigan, kitob o'qiydigan, tomosha qilgan narsasini muhokama qiladigan muqobil mashg'ulotlarni tavsiya etish ancha samaraliroq bo'ladi.

Interventsion usullar (agressiya yuz berganda qo'llaniladigan usullar):

Vaziyatni tinchitish. Bola g'azabdan o'zini yo'qotgan paytda uni nasihat qilish yoki savol-javobga tortish foyda bermaydi, chunki bu vaqtda uning fikrlash qobiliyati susayadi. Eng avval o'qituvchining o'zi xotirjam bo'lishi, ovozini balandlatmasligi, bolaga yaqin bormasdan, biroz masofa saqlagan holda qisqa va tushunarli ko'rsatma berishi kerak, masalan: "Qo'lingni to'xtat. Mana bu yerga o'tir". Bolani sinfdoshlari oldida uyaltirish, e'lon qilish, masxara qilish esa vaziyatni yomonlashtiradi, bola o'zini himoya qilish uchun yana ham keskinroq harakat qiladi.

Agar boshqa bolalarga xavf tug'ilsa, avvalo ularni xavfsiz joyga o'tkazish lozim. Voqeaning sababi haqidagi suhbat bola tinchlangandan keyin, odatda bir necha daqiqadan so'ng o'tkaziladi.

Pozitiv mustahkamlash. Skinner (1953) ko'rsatganidek, mukofotlangan xulq takrorlanadi.[3] Amalda esa o'qituvchilar ko'pincha yomon xulqqa darhol javob beradi, yaxshi xulqni esa "shunday bo'lishi kerak" deb sezdirmay o'tkazib yuboradi.

Natijada bola e'tiborni faqat nojo'ya qilig'i bilan oladigan bo'lib qoladi. Buning aksini qilish kerak: agressivlikka moyil bola o'yinda navbatini kutganda, nizoni so'z bilan hal qilganda yoki qo'lini ko'tarmasdan norozilik bildirganda, o'qituvchi buni darhol payqab, aniq so'zlar bilan maqtashi lozim. "Barakalla" deyishdan ko'ra "Sen bugun tortishuv paytida g'azabingni tutib, so'z bilan tushuntirding, bu juda katta kuch" degan jumla ko'proq ta'sir qiladi. Belgi, yulduzcha yoki "ijobiy kunlik" jadvali kabi vositalardan foydalanish mumkin, lekin ular vaqt o'tishi bilan ichki rag'batga, ya'ni bolaning o'zi bilan faxrlanishiga o'tkazib borilishi kerak.

Mantiqiy oqibatlar. Jazo va mantiqiy oqibat bir narsa emas. Jazo bolada qo'rquv va xafagarchilik uyg'otadi, oqibat esa uning qilmishi bilan bevosita bog'liq bo'ladi va nimani tuzatish kerakligini ko'rsatadi. Birovning daftarini yirtgan bola yirtilgan joyni yopishtirishi yoki yangi varaq tayyorlab berishi, kimnidir xafa qilgan bola kechirim so'rashi yoki xat yozishi, tanaffusda tengdoshini itargan bola esa qisqa muddat o'yindan chetlashib, tinchlangach, qaytib kelishi mumkin. Bunda o'qituvchi bolaga "yomon bolasan" demasligi, balki "bu qilmish to'g'ri emas,

2 Fitrat A. (1914). Oila yoki oila boshqarish tartiblari.
3 Skinner, B. F. (1953). Science and human behavior. New York: Macmillan.

uni tuzatish mumkin" degan fikrni yetkazishi muhim. Jismoniy jazo va qo'pol tanbeh ijtimoiy o'rganish nuqtai nazaridan bolaga muammoni kuch bilan hal qilish mumkinligini o'rgatadi, ya'ni agressiyaning o'zini namuna sifatida ko'rsatadi.

Kognitiv-xulq-atvor texnikalari. Dodge va Crick (1990) tadqiqotlarida agressiv bolalarda ijtimoiy ma'lumotlarni qayta ishlashning o'ziga xos xususiyati aniqlangan: ular noaniq vaziyatlarni, masalan, tasodifan turtib yuborilishini, ko'pincha dushmanlik deb talqin qiladi.[4] Ya'ni bola "u meni ataylab urdi" deb o'ylaydi va javob qaytaradi. Shu sababli kognitiv-xulq-atvor yondashuvida (Beck, 1976) asosiy e'tibor bolaning fikrlash usuliga qaratiladi. O'qituvchi bolaga "u buni boshqa sabab bilan qilgan bo'lishi mumkinmi?" degan savollar orqali muqobil izohlarni topishga yordam beradi. Rasmli hikoyalar va rolli o'yinlar yordamida bir vaziyatni turli yo'llar bilan hal qilishni mashq qildirish, "g'azab termometri" (1 dan 5 gacha shkala) yordamida his-tuyg'u kuchini baholashni o'rgatish ham yaxshi samara beradi.

Nizolarni konstruktiv hal qilish. Nizo bolalar hayotining tabiiy qismi, uning o'zi yomon emas, yomon tomoni uni qanday hal qilishda. Sinfda nizoli vaziyatlarni hal qilishning bir xil, tushunarli tartibini joriy etish tavsiya etiladi: avval ikkala tomon tinchlanadi; keyin har biri nima bo'lganini, o'zini qanday his qilganini "men" tilida aytadi ("Men xafa bo'ldim, chunki o'yinga meni olmading"); so'ng ikkalasi ham muammoni hal qilishning kamida ikkita yo'lini taklif qiladi; oxirida kelishilgan variant tanlanadi va keyingi kuni uning bajarilishi tekshiriladi. Katta sinf o'quvchilaridan tanlanganlarni "sulh elchilari" sifatida tayyorlab, kichik nizolarni hal qilishga jalb qilish mumkin. Bu bolalarda mas'uliyat tuyg'usini kuchaytiradi.

Tengdoshlar zo'ravonligiga (bulling) alohida e'tibor. Agar masxara qilish, chetlatish yoki urish bir bolaga nisbatan takror-takror qaratilsa va kuchlar nisbati teng bo'lmasa, bu oddiy nizo emas, bulling hisoblanadi. D. Olweus (1993) ishlarida bunday holatlarni faqat alohida bolalar bilan ishlash orqali emas, balki butun maktab miqyosida yagona qoidalar va kattalar nazorati bilan bartaraf etish mumkinligi ko'rsatilgan. Sinfda esa tomoshabinlarning roli muhim: ko'pincha bolalar jim turib, hodisani ma'qullayotganday bo'ladi. O'qituvchi "yordam so'rash xabarchilik emas" degan g'oyani muntazam tushuntirib borsa, qurbon bo'lgan bola ham, kuzatuvchilar ham jim turmasligi mumkin.

Aytaylik, 3-sinfda Anvar ismli bola tanaffusdan keyin sinfdoshi Jasurning rasmini yirtib tashladi. Odatiy javob shu bo'ladi: o'qituvchi Anvarni baqirib tanbeh beradi va ota-onasini chaqirtirishga va'da qiladi. Bunday yo'l bilan voqea o'sha zahoti to'xtaydi, biroq sabab saqlanib qoladi. Boshqacha harakat qilinsa, avval Anvarga tinchlanish uchun bir necha daqiqa beriladi, keyin yolg'iz suhbatda uning nima uchun shunday qilgani so'raladi. Ehtimol, Jasur unga mazax qilgan yoki Anvar yaxshi rasm chiza olmagani uchun o'zini yomon his qilgan bo'lishi mumkin. Shundan so'ng yirtilgan rasmni tuzatish yoki yangisini birgalikda chizish, yana shunday vaziyat yuz bersa nima qilish kerakligini muhokama qilish va keyingi kunlarda Anvarning to'g'ri qadamlarini payqab maqtash, ya'ni oqibat, kognitiv ish va mustahkamlash birgalikda qo'llanadi.

Oila, maktab va mutaxassislar hamkorligi:

Ota-onalar bilan ishlash. Bola maktabda bir xil, uyda boshqacha talablar bilan yashasa, xulq-atvorni o'zgartirish juda qiyinlashadi. Shu bois ota-onalar bilan aloqa muammo paydo bo'lgandan keyin emas, undan oldin o'rnatilishi kerak.[5] Ota-onaga faqat shikoyat bilan murojaat qilish o'rniga, avval bolaning yaxshi tomonlarini aytib, keyin vaziyat bo'yicha birgalikda yechim izlash taklif qilinishi, ayblovsiz suhbat olib borilishi ishonchni oshiradi. Kunlik yoki haftalik aloqa daftarchasi, ota-onalar yig'ilishida xulq-atvor qoidalari haqida qisqa axborot berish ham foydali. Shuni ham unutmaslik kerakki, bolalar kattalarning o'zaro munosabatidan, ularning nizolarda qanday so'zlashi va harakat qilishidan o'rnak oladi[6] (Bandura, 1973), shuning uchun oila a'zolariga bu haqda yumshoq va tushunarli tarzda eslatish zarur.

Maktab psixologi va boshqa mutaxassislar bilan hamkorlik. Ba'zi bolalarning agressivligi sinf miqyosidagi choralar bilan bartaraf etilmaydi, ularga individual yondashuv talab qilinadi. Bunday hollarda o'qituvchi psixolog bilan birgalikda bolaning xulq-atvorini chuqurroq o'rganadi, kerak bo'lsa, oilaviy vaziyat, sog'liq holati, nutq yoki diqqat bilan bog'liq muammolar borligini aniqlaydi. Natijada alohida reja tuziladi, unda qaysi xulq-atvorni o'zgartirish, qanday rag'bat berish, kim va qachon baholashi aniq yoziladi. Bola bilan "xulq-atvor kelishuvi" tuzish ham mumkin: unda u bajaradigan 2-3 ta oddiy vazifa va buning evaziga oladigan rag'bati ko'rsatiladi.

Mahalla va jamoatchilik. O'zbekistonda bolaga ta'sir ko'rsatuvchi muhim ijtimoiy institutlardan biri mahalladir. Maktab, oila va mahallaning birgalikdagi ishi barkamol avlod tarbiyasining asosi ekani pedagogik adabiyotlarda ta'kidlanadi (Quronov, 2017; Musurmonova, 2018). Amaliy jihatdan bu mahalla faollari, nuroniylar, ota-onalar qo'mitasi bilan hamkorlikda bolalar uchun sport musobaqalari, hunarmandchilik to'garaklari, kitob-

4 Dodge, K. A., & Crick, N. R. (1990). Social information-processing bases of aggressive behavior in children. Personality and Social Psychology Bulletin, 16(1), 8-22.
5 Fitrat A. (1914). Oila yoki oila boshqarish tartiblari.
6 Bandura, A. (1977). Social learning theory. Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall.

xonlik uchrashuvlari tashkil qilishni anglatadi. Bunday tadbirlar bolalarning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishga, kattalar bilan hurmat asosidagi muloqotni o‘rganishga yordam beradi.

O‘qituvchining shaxsiy roli. Yuqoridagi barcha usullar o‘qituvchining o‘zi xotirjam va izchil bo‘lgandagina ishlaydi. Bolalar kattalarning nima deyishidan ko‘ra, ular qanday yashashiga ko‘proq qaraydi. O‘qituvchi o‘zi asabiylashib, baqirib turgan bo‘lsa, “g‘azabni boshqar” degan nasihat ishonchli chiqmaydi. Shuning uchun pedagog o‘z hissiyotini boshqarish, charchoq va stressni kamaytirish yo‘llarini egallashi kerak, ba’zan esa hamkasblari yoki psixolog bilan fikr almashishi ham foydali. A. Avloniy yosh avlod tarbiyasida murabbiyning shaxsiy namunasi qanchalik hal qiluvchi ekanini ta’kidlagan edi, bu fikr bugungi kunda ham o‘z kuchini yo‘qotgani yo‘q.

Natijalarni kuzatish va baholash. Qo‘llanilayotgan usullar ish berayotganini bilish uchun ularning natijasini kuzatib borish zarur. Buning uchun murakkab o‘lchov asboblari shart emas: oy davomida agressiv holatlar sonining o‘zgarishi (kuzatuv jadvalidagi yozuvlar asosida), bolaning nizolarni so‘z bilan hal qilish holatlari, sotsiometrik so‘rov natijalari, ota-onalar va o‘quvchilarning fikri solishtirib ko‘riladi. Ko‘rsatkichlarni har 46 haftada tahlil qilish va kerak bo‘lsa, usulni o‘zgartirish tavsiya etiladi.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, ijobiy o‘zgarish tez va silliq kechmaydi. Ko‘pincha dastlabki haftalarda bola yangi qoidalarni “sinab ko‘radi” va vaqtincha holat yomonlashgandek tuyuladi. Shu paytda sabr va izchillikni saqlash, bir xil talabni takrorlash natija beradi. Ijtimoiy-hissiy o‘qitish dasturlari ko‘p mamlakatlarda tajribadan o‘tkazilgan va ularning tahlili bunday dasturlar bolalarning ijtimoiy ko‘nikmalari, xulqi hamda o‘zlashtirishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini ko‘rsatgan (Durlak va boshq., 2011).

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHAHRI

O‘quvchilardagi agressiv xulq-atvor muammosi psixologiya va pedagogikaning eng dolzarb tadqiqot yo‘nalishlaridan biridir. Ushbu sohada olib borilgan ko‘plab ilmiy ishlar agressiyaning kelib chiqishi, uning shakllari va uni boshqarish usullari bo‘yicha fundamental bilimlar bazasini yaratgan.

Behavioristik yondashuv (Skinner, 1953): Burxus Skinnerning operant shartlash nazariyasi agressiv xulq-atvorni boshqarishda rag‘batlantirish (pozitiv mustahkamlash) va jazoning (salbiy mustahkamlash, jazo) rolini tushuntiradi. Istalgan xulq-atvor rag‘batlantiriladi, noistalgan xulq-atvor esa e’tiborsiz qoldiriladi yoki muqobil xulq-atvorga o‘rgatish orqali kamaytiriladi (Skinner, 1953). R. G. Azimov (2006), B. Ziyomuhammadov (2015) kabi o‘zbek pedagoglari ta’lim jarayonida ijobiy xulq-atvorni shakllantirish bo‘yicha samarali usullarni tavsiya qilganlar.

Ijtimoiy-hissiy ta’lim (Social-Emotional Learning - SEL): D. Goleman (1995) tomonidan ommalashtirilgan hissiy intellekt konsepsiyasi asosida SEL dasturlari bolalarga o‘z his-tuyg‘ularini anglash, boshqarish, empatiyani rivojlantirish, ijtimoiy munosabatlarni o‘rnatish va mas’uliyatli qarorlar qabul qilishni o‘rgatishga qaratilgan. Ushbu dasturlar agressivlikning oldini olishda va ijobiy ijtimoiy xulq-atvorni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi (CASEL, 2017).

Pozitiv xulq-atvorga yordam berish (Positive Behavior Support - PBS): Bu yondashuv agressiv yoki noo‘rin xulq-atvorni jazolashdan ko‘ra, ijobiy, istalgan xulq-atvorni o‘rgatish, rag‘batlantirish va mustahkamlashga e’tibor qaratadi. PBS sinfda xulq-atvor qoidalarini aniq belgilash, ularni muntazam o‘rgatish va rioya qilinganlik uchun rag‘batlantirish tizimlarini joriy etishni o‘z ichiga oladi.

Fanlararo integratsiya va kompleks yondashuv: O‘zbekiston pedagogikasida A. Avloniy, Abdurauf Fitrat kabi ma’rifatparvarlarning asarlarida yoshlar tarbiyasida axloqiy qadriyatlar, odob-axloq me’yorlari va ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirishning muhimligi ta’kidlangan. M. Quronov (2017), O. Musurmonova (2018) kabi zamonaviy olimlar esa barkamol avlod tarbiyasida maktab, oila va mahallaning o‘zaro hamkorligining, shuningdek, ta’lim-tarbiya jarayonining uzviyligining nazariy-metodik asoslarini chuqur tadqiq qilganlar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilardagi agressiv xulq-atvorni samarali boshqarish va korreksiya qilish yagona, universal yechimni talab etmaydi. Muammoni hal qilish kompleks, individual va tizimli yondashuvni talab etadi. Mavjud adabiyotlar agressiyaning nazariy asoslarini va alohida intervensiya usullarini yaxshi yoritgan bo‘lsa-da, boshlang‘ich sinf darslarining bevosita jarayonida o‘qituvchi tomonidan qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan, integratsiyalashgan, amaliy va yoshga mos metodik strategiyalar bo‘yicha tizimli tavsiyalarga ehtiyoj bor. Ushbu maqola aynan shu ehtiyojni qondirishga intiladi.

Ushbu tadqiqot o‘quvchilarda agressiv xulq-atvorni boshqarish va ijtimoiy xulq-atvorni tarbiyalashning samarali metodikasini ishlab chiqishga qaratilgan bo‘lib, quyidagi nazariy-metodik yondashuvlar va prinsiplarga asoslanadi:

Kompleks-tizimli yondashuv: Agressiv xulq-atvorga bir tomonlama emas, balki bolaning psixologik, ijtimoiy, pedagogik va hatto fiziologik jihatlarini hisobga olgan holda yondashish. Muammoni maktab, oila va jamoatchilik o‘rtasidagi o‘zaro aloqada ko‘rib chiqish.

Bolaga yo‘naltirilgan yondashuv (Child-centered approach): Har bir o‘quvchining shaxsiy xususiyatlari, agressiyaning sabablari va namoyon bo‘lish shakllarini individual ravishda o‘rganish. Umumiy qoidalar o‘rniga, har bir bolaning ehtiyojlariga moslashgan yechimlarni topish.

Proaktiv va Preventiv yondashuv: Agressiyaning yuzaga kelishini kutmasdan, uning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish. Sinfda ijobiy muhitni yaratish va ijtimoiy-hissiy ko‘nikmalarni muntazam o‘rgatish.

Faoliyatga asoslangan yondashuv (Activity-based learning): O‘quvchilarni agressiyani nazorat qilish va ijtimoiy ko‘nikmalarni o‘zlashtirish jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish. Bu bilimlarni amaliy faoliyatlar, o‘yinlar, rolli mashg‘ulotlar orqali o‘zlashtirishni nazarda tutadi.

Pozitiv xulq-atvorga yordam berish (Positive Behavior Support - PBS): Salbiy xulq-atvorni jazolashdan ko‘ra, ijobiy, istalgan xulq-atvorni o‘rgatish, rag‘batlantirish va mustahkamlashga e’tibor qaratish.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘quvchilarda agressiv xulq-atvorni boshqarish va ijtimoiy xulq-atvor me’yorlarini tarbiyalash ta’lim tizimining eng muhim va dolzarb vazifalaridan biridir. Ushbu maqolada ilgari surilgan kompleks psixologik-pedagogik yondashuv agressiya muammosini nafaqat jazo vositasida yengish, balki uning sabablarini chuqur tushunish, oldini olish va ijobiy xulq-atvor alternativalarini shakllantirish orqali hal qilish zaruratini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, agressivlikni samarali tarbiyalashda profilaktik, interventiv va hamkorlikka asoslangan usullarning uyg‘unligi muhim ahamiyatga ega. Sinfda ijobiy va xavfsiz muhitni yaratish, o‘quvchilarga hissiy intellektni, empatiya va konfliktlarni konstruktiv hal qilish ko‘nikmalarini o‘rgatish agressiyaning oldini olishning eng samarali yo‘llaridir. Agressiv xulq-atvor namoyon bo‘lganda esa, unga pozitiv mustahkamlash, mantiqiy oqibatlar va kognitiv-xulq-atvor texnikalarini qo‘llash orqali yondashish, shuningdek, ota-onalar va mutaxassislar bilan uzviy hamkorlik qilish muammoni hal qilishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Maqolada bayon qilingan usullarning o‘ziga xos jihati shundaki, ular bir-birini to‘ldiradi. Faqat profilaktika qilib, nizo yuz berganda aniq harakat rejasi bo‘lmasa, bolaning xulqida o‘zgarish bo‘lmaydi; faqat interventsiya qilib, sinf muhiti va bolalarning ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirmasa, agressiya qayta-qayta paydo bo‘ladi. Ota-ona va mutaxassislar ishtirokisiz esa maktabdagi ish natijasi uyda yo‘qolib qolishi mumkin. Shu sababli o‘qituvchi uchun asosiy vazifa alohida usullarni emas, ularning uyg‘un tizimini qo‘llashdir.

O‘qituvchi ushbu jarayonda faqatgina bilim beruvchi emas, balki bolalarning ijtimoiy-hissiy murabbiyi, agressiyaning oldini oluvchi va unga qarshi kurashuvchi faol shaxs bo‘lishi kerak. Uning o‘zi namuna bo‘lishi, o‘z hissiyotlarini nazorat qila olishi va har bir bolaga individual yondashishi muvaffaqiyat garovidir.

Xulosa qilib aytganda, ushbu metodika agressiv xulq-atvorni boshqarishni insonparvar, ilmiy asoslangan va amaliy jihatdan samarali yo‘lga qo‘yishga yordam beradi. Natijada, o‘quvchilar xavfsiz, qo‘llab-quvvatlanadigan muhitda o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladilar, ularda ijtimoiy mas’uliyat, o‘zgalarni hurmat qilish va muammolarni tinch yo‘l bilan hal qilish ko‘nikmalari shakllanadi. Bu esa ularning nafaqat maktab davridagi, balki butun keyingi hayotidagi muvaffaqiyatlari uchun mustahkam zamin yaratadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Maqolada ko‘rib chiqilgan masalalar asosida amaliyot va keyingi tadqiqotlar uchun quyidagi takliflarni bildirish mumkin.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga. Har bir sinfda o‘quvchilar bilan birgalikda ishlab chiqilgan, ijobiy shaklda ifodalangan 4–5 ta xulq-atvor qoidasi bo‘lishi va ularga muntazam qaytib turilishi tavsiya etiladi. Darsning boshida qisqa “hissiyotlar davrasi” o‘tkazish, agressiv holatlarni kuzatuv daftariga yozib borish, jazodan oldin sababni aniqlash odatini shakllantirish maqsadga muvofiq.

Maktab ma’muriyatiga. Xulq-atvor qoidalari va nizoli holatlarda harakat tartibi butun maktab uchun yagona bo‘lishi lozim, aks holda bir o‘qituvchining talabi boshqasinikiga zid keladi. Har bir maktabda yoki kamida bir necha maktabga bitta malakali psixolog bo‘lishi, o‘qituvchilar uchun esa xulq-atvorni boshqarish va ijtimoiy-hissiy o‘qitish bo‘yicha amaliy seminarlar o‘tkazilishi foydali.

Ota-onalarga. Bolaning g‘azabiga javoban baqirish yoki urish o‘rniga uning his-tuyg‘usini nomlashga (“Sen xafa bo‘lding”) va muqobil yo‘lni ko‘rsatishga harakat qilish, bolaning ko‘radigan multfilm va o‘yinlarini nazorat qilish, maktab bilan muammo kuchayishini kutmasdan aloqada bo‘lish tavsiya etiladi.

Pedagogik oliy ta’lim muassasalariga. Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun o‘quv rejasiga bolalar xulq-atvorini boshqarish, nizolarni hal qilish va ijtimoiy-hissiy o‘qitish bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlarni kiritish, pedagogik amaliyot vaqtida real sinf vaziyatlarini tahlil qilishni yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq.

Keyingi tadqiqotlar uchun. Maqolada taqdim etilgan yondashuvlarni bir necha sinfda tajriba-sinov asosida qo'llab, natijalarni nazorat guruhi bilan solishtirish zarur. Shuningdek, o'zbek tilida va mahalliy madaniyatga mos agressiyani baholash vositalari, o'qituvchilar va ota-onalar uchun so'rovnomalar ishlab chiqish, bolalarning xulq-atvori o'zgarishini uzoq muddat kuzatish ham muhim vazifa bo'lib qoladi.

Mulohazalar:

Birinchidan, agressiv bolaga "yomon bola" deb qarash noto'g'ri. Odatda bunday xulq ortida bolaning o'zi ham hal qila olmayotgan muammo, ya'ni e'tibor yetishmasligi, qo'rquv, uyda ko'rgan zo'ravonlik yoki o'z his-tuyg'ularini ifodalay olmaslik yotadi. Shu sababli birinchi vazifa bolani tushunish, ikkinchisi esa unga yangi yo'l ko'rsatishdir. Bu jazoning butunlay kerak emasligini bildirmaydi, biroq faqat jazoga tayanish kutilgan natijani bermaydi.

Ikkinchidan, maqolada tavsiya etilgan usullarni amalda qo'llashda ayrim qiyinchiliklar bo'lishi tabiiy. Sinfda o'quvchilar soni ko'p bo'lganda har bir bolaga alohida vaqt ajratish, kuzatuv yozuvlarini yuritish o'qituvchiga qo'shimcha yuk bo'ladi, ba'zi maktablarda psixolog umuman yo'q. Shuning uchun usullarni birdaniga emas, bosqichma-bosqich, eng ko'p ehtiyoj sezilayotgan bolalardan boshlab joriy etish va ularni sodda shaklda saqlash ma'qul.

Uchinchidan, bu maqola asosan nazariy-metodik xususiyatga ega, uning tavsiyalari hali keng ko'lamli tajriba orqali sinovdan o'tkazilmagan. Ayrim usullar (masalan, sotsiometriya yoki "g'azab termometri") bolalar yoshi, sinf muhiti va madaniy sharoitga qarab moslashtirishni talab qilishi mumkin. Shu bois ularni qat'iy ko'rsatma sifatida emas, o'qituvchining tajribasi bilan boyitiladigan yo'nalish sifatida qabul qilish to'g'ri bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Avloniy A. (1913). Turkiy Guliston yoxud Axloq. Toshkent: Yangi asr avlodi (zamonaviy nashri).
2. Azimov R. G. (2006). Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent: O'qituvchi.
3. Fitrat A. (1914). Oila yoki oila boshqarish tartiblari.
4. Bandura, A. (1973). Aggression: A social learning analysis. Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall.
5. Bandura, A. (1977). Social learning theory. Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall.
6. Beck, A. T. (1976). Cognitive therapy and the emotional disorders. New York: International Universities Press.
7. CASEL (Collaborative for Academic, Social, and Emotional Learning). (2017). Social and emotional learning: A case for its importance. Retrieved from CASEL.org.
8. Dodge, K. A., & Crick, N. R. (1990). Social information-processing bases of aggressive behavior in children. Personality and Social Psychology Bulletin, 16(1), 8-22.
9. Dollard, J., Doob, L. W., Miller, N. E., Mowrer, O. H., & Sears, R. R. (1939). Frustration and aggression. New Haven, CT: Yale University Press.
10. Durlak, J. A., Weissberg, R. P., Dymnicki, A. B., Taylor, R. D., & Schellinger, K. B. (2011). The impact of enhancing students' social and emotional learning: A meta-analysis of school-based universal interventions. Child Development, 82(1), 405-432.
11. Goleman, D. (1995). Emotional intelligence: Why it can matter more than IQ. New York: Bantam Books.
12. Olweus, D. (1993). Bullying at school: What we know and what we can do. Oxford: Blackwell.
13. Skinner, B. F. (1953). Science and human behavior. New York: Macmillan.

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi
13.00.02 Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha)
13.00.07 Ta’limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov
Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov
Musahhih: Alibek Zokirov
Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №10(4)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C–5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.